



**O'ZBEKISTON XALQ TA' LIMI VAZIRLIGI  
MUQUMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**5111200- O'zbek tili va adabiyoti bakalavr yo'naliishi**

**401 –guruh talabasi ORIFJONOVA GULASALNING “Badiiy matnda hikmatli so'zlar (aforizmlar)ning qo'llanish xususiyatlari” mavzusidagi**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHL**

Ilmiy rahbar:\_\_ dotsent, f.f.n. R.Shukurov \_\_\_\_\_

## Mundarija

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I. BOB. BADIY NUTQDA AFORIZMLARNING TUTGAN O'RNI</b>	
1.1.Aforizm: ta'rifi, belgilari, farqlari, kelib chiqishi va rivojlanishi .....	9
1.2.Aforizmlarning badiy nutqda ahamiyati.....	18
Bob yuzasidan xulosa.....	18
<b>II. BOB. AFORIZMLARNING BADIY XUSUSIYATLARI</b>	
2.1. Sharq aforistikasining struktual-semantik tabiatı.....	28
2.2.Badiy nutqda aforizmlarning qo'llanilishi.....	34
Bob yuzasidan xulosa.....	35
<b>III. BOB. ISHNING AMALIYOTGA TADBIQI.</b>	
3.1. Kirish suhbatı. “So‘zdan so‘zning farqi bor....”.....	42
<b>XULOSA.....</b>	<b>48</b>
<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>51</b>

**Mavzuning dolzarbliji.** Badiiy adabiyotning tili umumxalq tilining boyligida o`z ifodasini topadi. Badiiy adabiyotning birinchi elementi, adabiyotning badiiy asosiy quroli. Shuning uchun ham badiiy asar tilini o`rganish yozuvchining badiiy mahoratini o`rganish masalasining asosini tashkil qiladi. Yozuvchi xalq tilining biror vositasini (maqollar va matallar, aforistik va idiomadik iboralar) tanlab olar ekan, u shu vositani badiiy asar talabiga muvofiq tarzda qo`llaydi. Yozuvchi til vositalari orqali o`z uslubini individual xususiyatlarni yaratadi.

Ma'lumki, hikmatli so'zlar (aforizmlar) xalqning ma'naviy madaniyati, urfodati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog'liq bo'lib, qisqa, ixcham, ma'no jihatidan salmoq dor birliklar sifatida har bir davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatlarning tiklanish davri so'zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek adabiy tilini chuqur egallahshni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Bu esa badiiy nutqda faol qo'llanuvchi hikmatli so'zlar (aforizmlar)ning lingvistik tadqiqiga oid ilmiy tadqiqotlarning hozirgi vaqtida dolzarb va muhimligidan dalolat beradi.

Olimlar diqqat-e'tiborini uzoq davrlardan buyon o'ziga jalb etib kelayotgan hikmatli so'zlar (aforizmlar) ko'proq madaniyatshunoslik, etnografiyaning o'rganish obyekti bo'lib keldi. Keyingi 40-50 yillar davomida esa hikmatli so'zlar (aforizmlar)ning lisoniy tabiatini tadqiq etish bilan tilshunoslар ham shug'ullana boshladilar. O'zbek tilshunoslida hikmatli so'zlar (aforizmlar)ni lingvistik nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlangan qator ishlarning yaratilishi buning yorqin dalili bo'la oladi<sup>1</sup>. Biroq hozirga qadar o'zbek tilshunoslida hikmatli so'zlar (aforizmlar)ning badiiy nutqdagi qo'llanish xususiyatlari, matn tarkibidagi

---

<sup>1</sup>Бу haqda qarang: Паремиология Узбекистана (библиография). Выпуск 1. Составители: А.М.Бушуй и др. –Самарканд, 1978; Выпуск II. –Самарканд, 1980; Выпуск III. – Самарканд, 1981.

funktional-semantik va lingvopragmatik imkoniyatlari maxsus o‘rganilmagan. Shuning uchun hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ning hozirgi davrda badiiy matnlarda qo‘llanish xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ishimiz mavzusining dolzarbliги shu bilan belgilanadi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligi badiiy asar tilini o‘rganish masalasi, badiiy nutqda aforizmlar juda kam o‘rganilgan. Ular sanoqli darajadadir<sup>1</sup>. Shu kunga qadar o‘zbek tilshunosligida hikmatli so‘zlar (aforizmlar) leksik<sup>2</sup>, sintaktik<sup>3</sup> jihatdan qisman o‘rganilgan. B.Jo‘rayeva esa maqollarning til, nutq bo‘linishidagi o‘rni, ma’noviy-uslubiy xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borgan edi<sup>4</sup>. M.Hakimov o‘zbek yozuvchilarining asarlarida maqol, matal va aforizmlarning qo‘llanish xususiyatlarini tadqiq etgan edi<sup>5</sup>. Keyinchalik olim xuddi shu mavzuda “Yozuvchi va xalq tili” deb nomlangan monografiya e’lon qildi<sup>6</sup>. X.Sharafiddinov qofiya va

<sup>1</sup> Nazarova X.H. Niyoziyning tili haqida. –T.: 1954; Shoabdurahmonov Sh. Ravshan dostoning badiiy tili haqida. –T.: 1949; Pinxasov Ya. Hamid Olimjon tilida frazeologik iboralar. – T.: – Buxoro.: 1953; Shomaqsudov A.Sh. Muqumiy satiralarining tili (Leksika frazeologiya) – T.: 1969; Husainov M. Yozuvchi Prozasining frazelogiyasi. –Samarqand: 1959; Qo‘chqortoyev I. Abdulla Qodiriyning frazeologik mahorati. –T.:1965; Doniyorov X., Samadov Q. Hamid Olimjonning tilidan foydalanishdagi navotirligi // Sharq yulduzi. 1959. 7-son; Ahmedov A Badiiy asar tilini o‘rganih haqida // O‘zbek tili va adabiyotining masalalari. 1960. 3-son; Doniyorov X., Mirzayev S. So‘z san’ati (Mahorat va til haqida mulohazalar). –T.: 1962; Samadov Q. Oybek so‘z san’atkori. –T.: 1965.

<sup>2</sup> Садриддинова М.З. Лексика узбекских пословиц и поговорок. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Т.: 1985. –С. 26.

<sup>3</sup> Абдурахманов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц. Автореф. дис... канд. филол. наук. –Т.: 1964. –С.27; Абдурахманов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества. Автореф. дис... доктора филол. наук. – Т.: 1977. –С.54.

<sup>4</sup> Jo‘rayeva B.M. Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma’noviy-uslubiy qo‘llanilishi. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. –Samarqand, 2002. – 23 b.

<sup>5</sup> Хакимов М. Пословицы, поговорки и афоризмы в произведениях узбекских ...писателей. Автореф. дис... канд. филол. наук. –Т.: 1965. – 23 с.

<sup>6</sup> Хакимов М. Ёзувчи ва халқ тили (ўзбек ёзувчиларининг асарларида мақол ва афоризмлар). – Т.: Фан, 1971. –176 б.

uning o‘zbek xalq maqollaridagi funksional-uslubiy xususiyatlarini o‘rgangan edi<sup>1</sup>. F.Rayhonov ham o‘zbek xalq og‘zaki ijodida, jumladan, maqollarda qofiya san’atini maxsus tadqiq etdi<sup>2</sup>. B.Soatov maqollarning folklor asari sifatidagi janr tabiatni va poetik xususiyatlarini tadqiq etdi<sup>3</sup>. H.Abdullayev esa xalq maqollarining “Qutadg‘u bilig” poetikasidagi o‘rni hamda badiiy-estetik funksiyalarini tadqiq etib, ilmiy risola va nomzodlik dissertasiyasi yaratdi<sup>4</sup>. E.Musurmonov o‘zbek xalq maqollari va topishmoqlarini o‘rganishga doir uslubiy qo‘llanma e’lon qildi<sup>5</sup>. A.Boboyevaning “Gazeta tili haqida” nomli risolasida, A.Abdusaidovning “Gazeta tilida maqollardan foydalanish” nomli bibliografik ko‘rsatkichida, “Gazeta sarlavhasi” nomli qo‘llanmasida publisistik matnlarda maqollarning qo‘llanish xususiyatlari haqida ma’lum darajada fikr yuritilgan edi<sup>6</sup>. Ammo shu kunga qadar aforizmlarning badiiy matnlardagi lingvistik tadqiqi, ularning lingvopragmatik jihatdan qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish muammoligicha qolmoqda.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Aforizmlarning badiiy asarda ishlatalishi, ularning badiiy nutqda tutgan o‘rni, g‘arb va sharq aforistikasining struktural-semantik tabiatini ko‘rsatish. Shunga ko‘ra ushbu bitiruv malakaviy ishida aforizmlarning badiiy matnlardagi lingvistik tadqiqini amalga oshirish, ularning

<sup>1</sup> Шарафиддинов Х. Рифмы и ее функционально-стилистические особенности в структуре узбекских народных пословиц. Автореф. дис... канд. филол. наук. –Т.: 1986. – 23 с.

<sup>2</sup>Райхонов Ф. Шеър қанотидаги юлдузлар (ўзбек халқ оғзаки ижодида қофия санъати). – Т.:Адабиёт ва санъат, 1986. – Б. 38-92.

<sup>3</sup>Соатов Б.А. Жанровая специфика и поэтические особенности узбекских народных пословиц. Автореф. дис... канд. филол. наук. –Т.: 1990. – 20 с

<sup>4</sup>Абдуллаев Ҳ. “Қутадғу билиг”да халқ мақоллари (илмий рисола). –Нукус: Билим. 2003. –Б.3-15; Абдуллаев Ҳ.Д. Халқ мақолларининг “Қутадғу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадиий-эстетик функциялари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. –Т.: 2008. – 23 б.

<sup>5</sup> Ўзбек халқ мақоллари ва топишмоқлари (услубий қўлланма). Тузувчи: Э.Мусурмонов. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 26 б.

<sup>6</sup>Бобоева А. Газета тили ҳақида. – Т.: Фан, 1983. – Б. 12-36; Абдусаидов А. Газета тилида мақоллардан фойдаланиш (библиографик кўрсаткич). – Самарқанд: СамДУ, 1986. – Б. 4-56; Абдусаидов А. Газета сарлавҳаси (қўлланма). – Самарқанд: СамДУ, 1995. – Б. 105-112.

matnlarda bajarayotgan xilma-xil funksional-uslubiy xususiyatlarini yoritish asosiy maqsad qilib olindi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim, deb topildi:

- o‘zbek filologiyasida hikmatli so‘zlar (aforizmlar)larning o‘rganilish darajasi bilan tanishish;
- hikmatli so‘zlar (aforizmlar)va unga yondosh idioma, matal va maqollar orasidagi o‘zaro umumiylig hamda farqli holatlarni aniqlash;
- hikmatli so‘zlar (aforizmlar)dagi ko‘p ma’nolilik va sinonimiya hodisalarini ochib berish;
- badiiy matnlarda hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ning qo‘llanish xususiyatlarini kuzatish va shu asosda ularning matndagi o‘ziga xos uzual va okkazional uslubiy vazifalarini tahlil etish;
- hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ning badiiy matnlarda qo‘llanish jarayonida variantlilik hodisasini tadqiq qilish;
- hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ning badiiy matndagi uslubiy vazifalarini belgilash va hokazo.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ning badiiy matnlardagi lingvistik tadqiqini yoritishga bag‘ishlangan ishlardan biri bo‘lib, unda quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

- hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ning o‘ziga xos struktural-grammatik va funksional-semantik xususiyatlari dalillar asosida tahlil etildi;
- hikmatli so‘zlar(paremiologiya) fani, uning keyingi yillarda erishgan yutuqlari haqidagi fikr-mulohazalar umumlashtirildi;
- badiiy matnlarda hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ning qo‘llanish xususiyatlari, uzual va okkazional funksiyalari yoritildi;

**Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Bu bitiruv malakaviy ishining ilmiy xulosalari hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ni har tomonlama o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ning struktural-grammatik va

funksional-semantik xususiyatlariga oid nazariy fikrlar o‘zbek tilshunosligida uslubiyat, til va badiiy mahorat masalalarini tadqiq etish doirasini chuqurlashtiradi. BMI uchun to‘plangan til materiallari o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar tuzishga xizmat qiladi. Ishdan oliv o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida o‘qitiladigan "Hozirgi o‘zbek adabiy tili" kursining "Leksikologiya" bo‘limi uchun material sifatida foydalanish mumkin.

**Ishning obyekti va materiallari.** Ishning tadqiq obyekti hozirgi o‘zbek tilining barqaror birikmalari tizimi va unga kiruvchi aforistik birlklardir. Ishning materialini esa buyuk o‘zbek mutaffakir shoiri Alisher Navoiy aforizmlari, Abdulla Qahhor hikoyalari, Said Ahmad asarlaridagi aforizmlarning o‘rni va ahamiyatini tadqiq qilishdir. Shuningdek, ishda ba’zi g‘arb olimlarining tadqiqot materiallar ham o‘rni bilan tahlilga tortildi.


**Ishning metodlari.** Bitiruv malakaviy ish tadqiq etilayotgan asar(manba)dan kelib chiqqan holda qiyosiy-tipologik va tavsifiy usullaridan foydalanildi.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Kirish, III bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 56 sahifani tashkil qiladi.

## I.BOB. BADIY NUTQDA AFORIZMLARNING TUTGAN O'RNI

### 1.1. Aforizm: ta'rifi, belgilari, farqlari, kelib chiqishi va rivojlanishi

Ilm-fanda aforizm terminiga ko'plab ta'riflar bor, bu ma'lum bir davr, ma'lum bir davlat va o'sha davlatning olim-donishmandlari qarashlariga bog'liq bo'ladi. Aforizmlarning vazifaviy xususiyatlari va turlarini tadqiqi shuni ko'rsatadiki, hozirga qadar barcha insoniyat uchun aforizmlarning aniq qabul qilingan ta'rifi va janr chegaralari mavjud emas, har xil ko'rinishdagi tasnifi tartibga keltirilmagan. Shu sababli manbalarda bir-birini inkor qiluvchi ta'riflar mavjud. Aforizm ta'rividagi yirik farqlar quyidagi belgilarda ko'rishimiz mumkin:




Mualliflik mavjudligiga masalan, A.S. Aksamitov tadqiqotlarida har qanday qisqa barqaror birikmalar, jumladan frazeologizmlar, maqollar, matallar va hikmatli so‘zlar aforizm turlariga kiradi deb hisoblagan. T.N.Fedorenko, L.I.Sokolskayalarning fikricha aforizmlar aniq muallifga tegishli bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. T.N. Fedorenko ”Aforistika” deb nomlanuvchi tadqiqotida quyidagi ta’rifni ilgari suradi: Ifodasi qisqa, mazmuni teran, fikr yakunlangan, tez xotirada qoluvchi, biron bir aniq muallifga tegishli hikmatli mulohazaga aforizm deyiladi.

L.I. Timofeyev, S.V. Turayev aforizmlarni asosiy jihatni mulohaza paradoksida deb hisoblashadi. L.I. Timofeyev muallifligidagi ”Adabiyot terminlari qisqa lug‘ati”da quyidagi fikr bayon qilingan: Aforizm muallifning qisqa qofiyali, ammo teran chuqur fikrli noyob mulohazasi. Bir guruh olimlar(Yu.N. Karaulov)esa ushbu belgini qo‘shimcha ekanligini ta’kidlashadi.

Aytilgan fikrga isbot talab etilmaslikning mavjudligi ”Adabiyot izohli lug‘ati” da ”grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasidan kelib chiqqan holdaisbot talab etilmaydigan hikmatli so‘zga aforizm deyiladi”. T.N.Fedorenko, L.I.Sokolskayalar bu fikrga tamoman qarshi chiqib, fandagi mantiqiy isbotning talab etilishi aforizmning asosiy belgisi deb hisoblashadi.

Tafakkur qilishga undashning mavjudligi to‘g‘risidabir qator olimlar tadqiqotida (Kulishkina O.P., Shestov L.V.) ”aforizmlar – inson tafakkurining katalizatori” deb hisoblaydi. Aforizmlarda esa tayyor tafakkur mahsuli yetarlicha beriladi. Aforizmning tayyor tafakkur mahsuli haqiqiy ma’nosi bilangina ochiladi.

Bu holatda tadqiqotchilarining aforizmlarga ta’rifda berilgan o‘xshash tomonlariga e’tiborni qaratmoq ma’qul. Bular teran mazmun va ifoda qisqaliligidir.



Aforizm grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “aphorismos” – qisqa, hikmatli so‘z<sup>1</sup> ma’nolarini anglatadi. Hikmatli so‘zlarga adabiyotlarda turlicha ta’riflar berib o‘tilgan:

1. Aforizm – aniq va ixcham ifodalanib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli so‘zlar<sup>2</sup>;
2. Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap<sup>3</sup>;
3. Ma’lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan

<sup>1</sup> Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1967.–B.35.

<sup>2</sup> Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1967. –B.35

<sup>3</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: Fan, 2002.–B.144.

ixcham, ma’nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir<sup>1</sup>.

Adabiyotshunos olim Z.Toshpo‘latov o‘z tadqiqotida aforizmlar tabiatini haqida bildirilgan turlicha qarash va mulohazalarining ma’lum sabablarini ko‘rsatib o‘tadi:

1. Ushbu janr dunyo xalqlarining barchasida mavjud va ular haqida jahon paremiologiyasida turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan;

2. Aforizmlarning badiiy shakli masalasida yagona hukmron fikr, yagona konsepsiya yo‘q;

3. Ko‘pchilik olimlar aniq muallifga ega bo‘lgan chuqur mazmunli, ixcham ifoda shakliga ega bo‘lgan hikmatli gaplarni aforizm deb hisoblasalar, ayrimlar aniq muallifga ega bo‘lmagan qanotli iboralarni ham ushbu janr tarkibiga kiritadilar<sup>2</sup>.

4. Aforizmlar o‘zining juda qisqa va ma’nodorligi bilan qadim zamonlardan beri kishilar ularning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Shuning uchun kishilar ularni diqqat bilan to‘plaganlar va alohida to‘plam holida qayta-qayta nashr etganlar.

Tarixiy manbalarda ham, xalq orasida ham xalqimizning aforistik ijodi turlituman atamalar bilan nomlanib kelinadi. *Maqol, matal, naql, masal, zarbulmasasal, otalar so‘zi, hikmatli so‘z, aforizm, hikoyat, hikmat, burungilar so‘zi, mashoyixlar so‘zi* va boshqalar ana shunday atamalardandir. Bu terminlar ko‘pchilik hollarda hozirgacha ham umuman aforistik ijodga nisbatan aralash ishlatilib, birining o‘rniga ikkinchisi qo‘llanib kelmoqda.

Xalqimizning aforistik ijodi shu darajada murakkab, serqirra va ko‘p janrlik, uning tabiatini birgina “*maqol*” yoki “*hikmatli so‘z*” atamasi bilan to‘la ifodalash qiyin. Shuning uchun keyingi yillarda o‘zbek folklorshunosligida ham

<sup>1</sup>Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlilli asoslari. –T.: Fan,2006. –B.54.

<sup>2</sup>Toshpo‘latov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. : Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. –T., 2006. –B.8.

xalqimiz yaratgan barcha aforistik va didaktik merosning janriy chegaralarini aniqlashga urinish sezilayotir. Shu jihatdan qaraganda, “*maqol*”, “*matal*”, “*aforizm*”, “*naql*” kabi terminlarni adabiy janrlarning nomlari sifatida aforistik va didaktik ijodning muayyan namunalariga nisbatan qo‘llash qat’iy lashmoqda. Masalan, “*naql*” didaktik xarakterdagi kichik-kichik hikoyatlarga nisbatan qo‘llansa, aforizm yirik ijodkorlar, olimlar, davlat arboblari asarlarida uchrovchi yoki yaratilishi jihatidan shunday shaxslarga mansub bo‘lgan, ammo tilimizda faol qo‘llanuvchi hikmatli so‘zlarga nisbatan ishlatilmoqda. “*Maqol*” va “*matal*”ning termin sifatida qo‘llanish xususiyatlari haqida ham shu xilda mulohazalar bildirish mumkin.

“*Maqol*” termini arabcha “*qavlun*” (aytmoq, gapirmoq) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida u xalq donoligining namunasi bo‘lmish aforistik janrlardan birining atamasiga aylangan va ma’qul aytilgan so‘z, gap yoki ibora ma’nolarini anglatadi. Bunda “*maqol*” janr atamasi bilan uning poetik tabiat o‘rtasida bevosita semantik aloqadorlik mavjudligi seziladi.

G‘.Salomov o‘zbek tilshunosligi uchun g‘oyat dolzarb muammolardan biri bo‘lgan *maqol* va frazemalar tarjimasi bilan maxsus shug‘ullandi, shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi, bir necha monografik tadqiqotlar yaratdi<sup>1</sup>. Olim o‘z ishlarida “frazeologik ibora”, “idioma”, “ibora” kabi atamalardan sinonim sifatida foydalanadi, bunday til birliklarini *maqol*, matallardan farqlashga intiladi.

G‘.Salomovning ta’kidlashicha, “*Maqol* - xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqeа-hodisalarga munosabatining ifodasidir. *Maqol* kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi jarayonida tug‘iladi. Xalq *maqoli* - xalqning mulkidir. *Maqol*

---

<sup>1</sup>Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. –Т.: ЎзФА, 1961. –В.162; Саломов Ф. Тил ва таржима (бадиий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Т.: Фан, 1966. – Б.237-340.

qayg‘usi - xalq qayg‘usi, maqol g‘azabi - xalq g‘azabi, maqol kulgisi - xalq kulgisi va maqol kinoyasi - xalq kinoyasi demakdir. Maqol ishlatmagan bironta xalq, maqol ijod qilmagan bironta til yo‘q. “Dunyoda tilsiz xalq bo‘lmagani kabi, maqolsiz til ham yo‘q”, - deb ko‘rsatadi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat”<sup>1</sup>.

Agar maqol - turmushda sinalgan, ma’lum ezgu, tugal, umumiylar ma’no anglatuvchi, ixcham bir shakldagi xalq hikmati bo‘lsa, “matal narsa va hodisalarini obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan ibora va nutq oborotlaridir. Matal so‘zlovchining o‘z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal kishining xotirasida osonlik bilan saqlanib qoladi”<sup>2</sup>.

Olim o‘zining “Tarjima nazariyasi asoslari” asarida maqol, matal va idiomani farqlashga xizmat qiluvchi quyidagi sxemani keltiradi:

<i><b>Maqol</b></i>	<i><b>Matal</b></i>	<i><b>Idioma</b></i>
So‘zlovchi nodon bo‘lsa, tinglovchi dono kerak.	O‘zini aka, echkisini taka demoq.	Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq.
Bir yigitga yetmish hunar oz.	Burgaga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirmoq.	Oyog‘ini qo‘liga olib qochmoq.
Do‘sting uchun zahar yut.	Qo‘ynini puch yong‘oq bilan to‘ldirmoq.	Onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq.

Bu ishda olim “frazeologizm” (“frazema”) atamasining mazmunini nihoyatda keng tushunadi, uning tarkibiga maqol, matal va idiomalarini ham kiritadi: “Frazeologizm (maqol, matal va idiomalar)ning ma’nosini kontekst ichida ochiladi. Binobarin, muayyan iboraning ma’nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim. To‘g‘ri, ikki yoki bir nechta tilda ham shaklan, ham

<sup>1</sup> Саломов Ф. Тил ва таржима (бадиий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Т.: Фан, 1966. – Б. 256.

<sup>2</sup> Salomov G‘. O‘sha asar, 258-bet.

mazmunan, ham ma'noviy tarafdan aynan muvofiq keladigan mutlaq ekvivalentlar ham topiladi”<sup>1</sup>.

Ko‘pgina tadqiqotchilar maqoldan matalning farqini ko‘rsatishga, ularning chegaralarini belgilashga uringanlar. Shundaylardan biri XIX asrning ulkan lug‘atshunosi V. Daldir. U o‘zining mashhur “Пословицы русского гарода” to‘plamining kirish qismida shunday yozgan edi: “Matal, xalqning ta’rificha, g‘uncha, maqol esa, meva; bu ta’rif juda ham to‘g‘ri”. Uning fikricha, “maqol to‘liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo‘lsa, matal ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir”. M. A. Ribnikova ham matalga nutq parchasi, ibora, hukm elementi, maqolga esa tugal hukm, to‘liq fikr ifodachisi sifatida qaraydi. Bizningcha, maqol va matallar o‘zaro farqlanuvchi jihatlarga asoslangan ikki mustaqil, lekin bir-biriga o‘tib turuvchi folklor janrlari hisoblanadi. “*Maqol*” va “*matal*” so‘zlarining turkiy xalqlar tilida ishlatilish doiralari, ular anglatgan ma’nolarning xilma-xilligi ham bu fikrni to‘la tasdiqlaydi.

“Matal” so‘zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma’nolarda qo‘llaniladi. U topishmoq, hikmatli so‘z, ertak, masal, umuman, hikoya qilish, naql qilish, hikmat aytish ma’nolarida ishlatiladi. U termin sifatida o‘zbek folklorshunosligida paremalarning bir turini ifodalashi jihatidan differensiyalashib bormoqda<sup>2</sup>.

O‘tgan asrning 90-yillarida tadqiqotchi olim B.Sarimsoqov ilmiy jamoatchilikka badiiy adabiyotning uch turi (poeziya, proza va dramaturgiya) dan tashqari to‘rtinchi turi – paremiya turini tavsiya etgan edi<sup>3</sup>. Ayni shu masala bo‘yicha olim yanada jiddiyroq shug‘ullanib, “Yangi adabiy tur haqida” nomli ikkinchi maqolasini e’lon qildi<sup>4</sup>. B.Sarimsoqov “Badiiylik asoslari va mezonlari”

<sup>1</sup> Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б.118.

<sup>2</sup> Бу haqda qarang: Соатов Б. Мақолларнинг матал ва топишмоқларга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. № 4. – Б. 37-40.

<sup>3</sup> Саримсоқов Б. Адабий турлар ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. № 5-6. – Б. 3-12.

<sup>4</sup> Саримсоқов Б. Янги адабий тур ҳақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002 йил 7 июнь.

nomli ilmiy risolasida bu masalaga chuqurroq yondoshib, badiiylik mohiyati hamda ruhiy va aqliy asoslariga tayangan holda lirika, epos, drama va paremiya turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini bat afsil izohlab berdi. Olimning talqiniga ko‘ra, “hayotiy kuzatishlar asosida yuzaga kelgan paremik kechinma aqliy mulohaza jarayonida pishib, ixcham va izchil xulosalar sifatida barqarorlashadi. Ana shu lo‘nda fikr va xulosalar esa faqat ixcham, kristall shaklda ifodalanishni talab etadi. Chunki paremik kechinmada hissiy komponent ikkinchi planga ko‘chib, aqliy komponent birinchi planga chiqadi...”.

Qadimiy Yunonistonning buyuk tabibi Gippokrat (yangi eradan avvalgi 400-500-yillarda yashagan)ning hikmatli so‘zlari 1525-yilda lotin tilida nashr etilgan, 1814-yilda esa rus tiliga tarjima qilingan. Nemis olimi G.Byuxmanning bundan yuz yil avval bosilagan kitobi yigirma yetti marta qayta nashr bo‘ldi. Nemis mutaffakiri G.K.Lixtneberg (1742-1799) maqollari esa jahonning juda ko‘p mamlakatlarida ma’lum va mashhurdir. Mashhur Eron olimi Mirzo Ali Akbar Dehxudo tuzgan to‘rt tomlik “Amsolu hikam (Maqollar va hikmatlar)” asari ingliz tiliga tarjima qilingan. Aforizm to‘plamlari Fransiya, Angliya, Hindiston, Misr, Xitoy va dunyoning qator boshqa o‘lkalarida keng tarqalgan. Rus adabiyoti tarixida aforizmlarni ko‘plab nashr etish, ilmiy jihatdan o‘rganish alohida o‘rin tutadi.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyo va Qozog‘iston xalqlari tillarida aforizmlarning bir necha to‘plamlari nashr etildi.

O‘rta Osiyo xalqlarining aforizmlari ustida so‘z yuritar ekanmiz, o‘zbek xalqi bilan qadimdan birga yashab, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va adabiy hamkorlikda bo‘lib kelayotgan tojik xalqining dono pand-u hikmatlari xususida to‘xtalmasdan o‘tib bo‘lmaydi. Fors tojik adabiyotida Firdavsiy, Hofiz Sheraziy, Sa’diy Sheraziy, Abdurahmon Jomiy, Bedil va boshalarning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va ta’limiy sohalaridagi o‘lmas fikrlari, badiiy va ma’naviy durdonalari – aforizmlari insoniyatning badiiy va ma’naviy fikr xazinasini boyitishda salmoqli

o‘rin tutadi. Mazkur siyomolarning shoh baytlari, shoh misralari eron va tojik xalqlari, hatto turkiy tillarda so‘zlovchi xalqlar orasida keng yoyilib maqollarga aylanib ketgan. Dehxudo to‘plamining 97% yozma adabiyotdan olingan aforizmlardir. To‘plamning faqat uch foizigina folklor materialardan olingan.

O‘zbek va fors-tojik adabiy aloqalarining qadimdan davom etib kelishi, fors-tojik adabiyoti durdonalarining o‘zbek adabiyoti namoyondalari tarafida ko‘plab tarjima qilinishi va o‘zbrk xalqi orasida keng tarqalishi natijasida fors-tojik shoirlarning hikmatli so‘zlari o‘zbek xalqi orasida keng yoyilib mashhur bo‘lib ketgan<sup>1</sup>.

Olim Shoislom Shomuhamedov fors-tojik klassikalarining dono hikmatlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Sh.Shomuhamedov o‘z tarjimlalaridan ikki to‘plam tuzib nashr ettirdi<sup>2</sup>. Muallif 1965-yilda nashr etilgan “Ming bir hikmat” nomli kitobida fors-tojik klassikalarining inson haqidagi, insonning oliyjanob xislatlari, ilm, mehnat, baxt-saodat haqidagi dono so‘zlarini to‘plab kitobxonga taqdim etgan. XV asr fors tojik adabiyoti taraqqiyotiga o‘zining forsiy tildagi ulkan lirik merosi (“Devoni Fony”) bilan kata hissa qo‘shtan buyuk o‘zbek mutaffakir shoiri Alisher Navoiy aforizmlari mazkur to‘plamdagagi har mavzuga unvon (sarlavha) bo‘lib kirgan.

### **Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelindi:**

1. Aforizm ta’rifidagi yirik farqlar quyidagi belgilarda ko‘rishimiz mumkin. Bular quyidagilar: Mualliflik mavjudligi; Paradoksning mavjudligi; Aytilgan fikrga isbot talab etilmaslikning mavjudligi; Tafakkur qilishga undashning mavjudligi.

---

<sup>1</sup>Hakimov. Yuqoridagiasar, 7-b.

<sup>2</sup>Sh.Shomuhamedov. Otalar orzusi – istiqlol ko‘zgusi. –T.: O‘ZFA, 1963; Ming bir hikmat. Fors-tojik klassiklari aforizmlaridan tuzuvchi va tarjimon Shoislom Shomuhamedov. –T.: Badiiy fdabiyot, 1965.

2. Hikmatli so‘zlarga adabiyotlarda turlicha ta’riflar berib o‘tilgan: Aforizm – aniq va ixcham ifodalanib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli so‘zlar; Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; Ma’lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma’nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir.

## **1.2.Aforizmlarning badiiy nutqda ahamiyati**

Badiiy nutq – matn ko`rinishi bo`lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo`lib, u og‘zaki, hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi. Matnlar bir - biridan so`z va amallardan foydalanish usullari hamda tuzilishi jihatidan badiiy to`qima, har xil barqaror birikmalarni ishlatish bilan farq qiladi. Badiiy matnlar aforizmlardan foydalanish jihatidan ham farqli tomonlariga egadir.

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so‘zlar yordamidagina emas, balki bir necha so‘zlarning barqaror bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Shu o‘rinda barqaror birikmalarga ta’rif berishni lozim topdik.

Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi<sup>1</sup>.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma’no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

---

<sup>1</sup>Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002. – B.103.

Barqaror birikmalardan o‘rinli foydalanish nutq go‘zalligini ta’minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko‘rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi paremiologiya (lotincha parema barqaror”, logos” ta’limot), barqaror birikmalar lug‘atini tuzish muommolarini o‘rganuvchi bo‘lim esa paremiografiya (lot. Parema –barqaror, grofho yozmoq”) sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra umumiyligini tashkil etsa ham, ma’no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko‘ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:



Barqaror birikmalar guruhiga kiruvchi frazeologizm, maqol va matallar, aforizmlarga ta’rif berishni lozim topdik.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so‘zlar ma’no jihatdan uyg‘unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko‘pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Masalan, *qulog‘i ding bo‘lmoq – hushyor bo‘lmoq, qovog‘i osilmoq – xafa bo‘lmoq, og‘zining tanobi qochmoq – quvonmoq* kabi.

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalarga **frazeologimlar** deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo‘lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so‘zlar frazeologimning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo‘laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan, *Rais daladagi hosilni ko‘rib boshi osmonga yetadi*. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Hamdo‘stlik mamlakatlari tilshunosligida bo‘lganidek, turkiyshunoslikda, jumladan o‘zbek tilshunosligida ham frazeologiya doirasi hozirgi kunga qadar keng va tor ma’noda tushunilmoqda. Frazeologiyani keng ma’noda tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlar va boshqa tipdagi turg‘un birikmalarni kiritadilar; tor ma’nodagi frazeologiya tarafdarlari esa *ter to ‘kmoq, xamirdan qil sug‘urganday, dunyoni suv bossa, to ‘pig‘iga chiqmaslik* kabi ko‘chma ma’noli turg‘un bog‘lanmalarni o‘rganish bilan cheklanadilar.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar **maqollar** sanaladi.

Masalan, *Shamol bo ‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Boltar tushguncha, to ‘nka dam oladi*.

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo‘ladi.

So‘zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi.

Maqollar fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati sanaladi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri bo‘lgan “maqol” lug‘atlarda turlicha izohlanmoqda. Bunga ishonch hosil qilish uchun bir necha lug‘atlarda maqolga berilgan ta’riflarni keltirib o‘tishni lozim topdik:

1. “Maqol – turmush tajribalari zaminida tug‘ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko‘pincha she’riy shakllardagi hikmatli so‘zlar, chuqur ma’noli

iboralar. Maqol xilma-xil mavzularda bo‘lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko‘pincha maqol o‘git-nasihat xarakterida bo‘ladi”<sup>1</sup>.

2. “Maqol – chuqur mazmunli, qisqa va lo‘nda, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli, obrazli gap ko‘rinishidagi xalq og‘zaki ijodi janri. Ikki va undan ortiq misrali maqollarda, odatda, to‘liq qofiya kuzatiladi... Maqollarda ajdodlarimizning turmush tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari, ma’naviy-axloqiy masalalar haqidagi xulosalari tajassum topgan. Maqollar asrlar mobaynida xalq orasida sayqallashib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan”<sup>2</sup>.

3. “Poslovitsa – maqol. Qisqa, chuqur ma’noli, nutqda keng qo‘llanuvchi barqaror shaklga ega folklor janrlaridan biri bo‘lib, ular xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan. Maqollar fikrni nisbiy tugal hukm tarzida ifodalashi va barqaror shaklga egaligi bilan matallardan farq qiladi. Maqollar nutq jarayonida u yoki bu vaziyat munosabati bilan fikrni lo‘nda, obrazli tarzda ifodalashi bilan juda qo‘l keladi. Shuning uchun ham maqol badiiy asarlarda juda ko‘p ishlatiladi...”<sup>3</sup>.

4. “Maqol – xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarimizning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan...

*Maqol ba’zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi* kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtmoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati

<sup>1</sup>Хомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1970. – Б. 106.

<sup>2</sup>Salayev F., Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. –Т.: Yangi asr avlodи, 2010. – В.127-128.

<sup>3</sup>Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б.239.

nihoyatda katta. *Matalda* narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi. *Maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi*<sup>1</sup>.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to‘g‘ri ma’noda qo‘llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar **matallar** hisoblanadi.

Masalan,

*Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘.*

*Qimirlagan qir oshar.*

Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga **hikmatli so‘zlar (aforizmlar)** deyiladi.

Masalan,

*Ilmsiz inson – mevasiz daraxt.*

*Ilm –inson ziynati.*

(Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy)

Hikmatli so‘zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik (ya’ni nutqda doimo bir xil tuzulishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko‘ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylit kasb etsa ham, aniq muallifning borligi bilan ulardan farq qiladi.


Hikmatli so‘zlar (aforizmlar) insonni fikrlashga va shu bilan birga so‘zlashishga o‘rgatadi. Yetarlicha so‘zlarning qisqa berilishi, ma’noning chuqurligi, yorqin obrazlilik aforizmlarni uslubiy nodir namuna darajasiga ko‘taradi. Ayni jihatdan, fikr qanchalik teran bo‘lsa, ifodasi shunchalik qisqa

---

<sup>1</sup>O‘zME, 5-tom. –T.: –B.543.

bo‘lishi, qanchalik go‘zal bo‘lsa, shunchalik tez yodda qolishini ta’minlaydi va inson nutqining bir xil bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ni ikki turga bo‘lish mumkin:



1. Har qanday badiiy nutqda ishlatalishi mumkin bo'lgan aforizmlar. Biz uni shartli ravishda **kiruvchi** deb nomlaymiz.
2. Mustaqil aforizmlar.

Har qanday badiiy nutqda ishlatalishi mumkin bo'lgan aforizmlar badiiy asar matniga kiritiladi. Adabiyotning turli janri bo‘lmish roman, hikoya, drama, poema va ocherklarda har qanday badiiy nutqda ishlatalishi mumkin bo'lgan **kiruvchi aforizmlar** uchraydi. Kiruvchi aforizmlar gap tuzilishida bo‘ladi, har qanday asar tarkibida ham barqaror birlik sifatida, ham kiruvchi aforizm sifatida namoyon bo‘la oladi.

**Mustaqil aforizmlar** – nazmda ijod eta oladigan ijodkorning donishmand dunyoqarashi, hayotiy tajribasi mujassam etilgan **hikmat adabiyoti(tafakkur**

**tuhfalari)**<sup>1</sup> sanaladi. Hozirgi kunga kelib **hikmat kitobidan** tashqari, mustaqil aforizmlarning esse va kundalik janr turlari ham mavjud.

Forobiy grammatika bilan mantiqning o‘zaro uzviy aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya’ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensianing joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi **hikmatli so‘zlarni** va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi. Uchinchi ilm mantiqidir. U ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri va nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz<sup>2</sup>.

Sharqda adabiyot va hikmat so‘zlari o‘zaro egizak tushunchalarga aylanib ketgan. Chunki bu mintaqada adabiyot deganda ko‘pincha purma’no hikmatlarga omuxta asarlar tushuniladi. Voqe'an, hikmat deyilganda o‘tmishda:1) ilm, ma'rifat va donishmandlik; 2) falsafa va falsafiy ilmlar; 3) mohiyat, sir-asror ko‘zda tutilgan.

---

<sup>1</sup> Tafakkur tuhfalari. Sa’diy Sheroziy. Hikmatlar. –T.: O‘zbekiston, 2013. –247-b.; Tafakkur tuhfalari. Fariddin Attor. Hikmatlar. –T.: O‘zbekiston, 2012. –255-b.; Tafakkur tuhfalari. Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. –T.: O‘zbekiston, 2013. –245-b.

<sup>2</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –B.179.

1. Ilm, ma'rifat va donishmandlik.

2. Falsafa va falsafiy ilmlar.

3. Mohiyat, sir-asror.

Mumtoz so‘z san’ati esa aynan Olam va Odam mohiyatini teran badiiy talqin etgani, hayot sir-asrorlaridan keng bahs yuritgani, umr ma’nosи, insonnig jamiyatdagi o‘rni, ruhiyat manzaralari, ko‘ngil kechinmalarini haddi a’losida yoritgani, rang-barang va salmoqli falsafiy mushohada-muhokamalarga boyligi, turli mavzudagi ko‘pdan-ko‘p ma’naviy-ma’rifiy g‘oya-fikrlarga yo‘g‘rilgani bilan **hikmat adabiyoti** deb atalishga har jihatdan munosib.

Sharq adabiyotining xohlagan namunasini qo‘lga oling, unda albatta bir-biridan go‘zal va teran ko‘plab hikmatli so‘z, bayt va misralarga duch kelasiz.

Pandnoma asarlarni-ku, qo‘yavering – ularning har biri o‘ziga xos hikmat kitobi. Ularning varaqlagan har bir o‘quvchi o‘z ruhiyati va kayfiyatiga mos hikmatlarni uchratib, o‘zini qiyagan barcha savollarga javob topadi. Chunki har bir pandnoma qomusiy bilim, katta hayotiy tajriba sohibi bo‘lgan donishmand ajdodlarimizning o‘qigan-eshitgan, ko‘rgan-kechirganlari borasida uzoq mulohaza yuritib, ular yuzasidan chiqargan abadiyatga daxldor qimmatli badiiy xulosalaridir. Bu hikmatlarning asrlar davomida davomida qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, sevib o‘qilib kelgani, barcha toifa tabaqanining ehtiyojlariga javob bergani va bugungi kunda ham

o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, ma’rifiy bilim manbai va ma’naviy tarbiya vositalaridan biri sifatida xizmat qilayotgan va bundan keyin ham o‘z donishiy vazifasini bajarishda davom etishi ularning hayotbaxsh va umrboqiyligini ko‘rsatadi.

Qadimgi hindlar nasrni tan olmaganlari tufayli bu tilda hatto ilmiy risolalar ham she’riy usulda yaratilgani kabi donishmand ota-boblarimiz ham hikmatdanxoli asarlarni yuqori baholamaganlar. Chunonchi, Alisher Navoiy ilk devoni ”Badoyi” ul-bidoya” devoniga yozgan debochasidayoq ma’rifat va nasihat adabiyotning bosh vazifasi ekanligiga urg‘u berib, ma’rifiy fiklar va axloqiy o‘gitlardan xoli devon tuzilsa, behuda zahmat chekilgan bo‘ladi deb ta’kidlagan va o‘zining hatto ishqiy g‘azallari ham ulardan benasib emasligini alohida qayd etib o‘tgan edi<sup>1</sup>. Sharqda pandnomalarning nechog‘liq rivojlangani, hikmatlarning qanchalik ahamiyati beqiyos ekanligini shundan ham bilsa bo‘ladi.

### **Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelindi:**

1. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar: Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik nutqqa tayyor holda olib kirishlik; Ma’no butunligi; Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.
2. Voqealarning hikmat deyilganda o‘tmishda: 1) ilm, ma’rifat va donishmandlik; 2) falsafa va falsafiy ilmlar; 3) mohiyat, sir-asror ko‘zda tutilgan. Hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ni ikki turga bo‘lish mumkin. Bular har qanday badiiy nutqda ishlatalishi mumkin bo‘lgan **kiruvchi** aforizmlar vamustaqlil aforizmlar.

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 1-jild. – T., 1987, 21-bet.



## II. BOB. AFORIZMLARNING BADIY XUSUSIYATLARI

### 2.1. Sharq aforistikasining struktual-semantik tabiatı

Aforizm paremik adabiy turga mansub bo‘lganligi sababli voqelikni bevosita tasvirlamaydi, balki voqelik haqida u yoki bu shaxsning dono xulosasini, ibratomuz hukmini ifodalaydi. Shuning uchun mazkur janrning badiyligi haqida so‘z yuritganda epik yoki lirk janrlar badiyyatini tadqiq etishdagi kabi tasviriy vositalar, poetik figuralar hamda badiiy san’atlarni qidirish kutilgan natijani bermaydi. Chunki aforizm badiiy tasvir birinchi planda amal qiluvchi adabiy janr emas, balki axborot berishni nazarda tutuvchi janr hisoblanadi. Demak, barcha adabiy turlarga mansub adabiy janrlar badiyyati bir xil mezonlarga bo‘ysunmaydi. To‘rtinchchi adabiy tur – paremiya haqida so‘z yuritganda B. Sarimsoqov mazkur turning yetakchi xususiyatini alohida ta’kidlab o‘tgan edi. “Paremiya adabiy turiga mansub janrlarda voqelikni hikoya qilib berish, kechinmalar orqali ko‘rsatish prinsipi emas, balki voqelikni kuzatish orqali, to‘plangan tajribalar orqali obrazli ifodalash va u haqda hukm orqali, to‘plangan tajribalar orqali obrazli ifodalash va u haqda hukm chiqarish prinsipi yetakchilik qiladi”<sup>1</sup>. Umuman olganda, janrlarni sof badiiy tasvir va ifodaga asoslangan hamda muayyan axborotni badiiy shaklda yetkazishga mo‘ljallangan kabi guruhlarga ajratish folklorshunoslikda allaqachonlar qabul qilingan.

Voqelik haqidagi u yoki bu shaxslarning xulosa hamda hukmlarini ularning estetik ideallari darajasida ifodalish aforizmlarning badiylik mezonini belgilaydi. Aforizmlar badiyligi ularda aks ettirilgan obrazlarning umumiyligi saviyasi bilan aloqadorlikda aniqlanadi. Boshqa janrlardagi obrazlilikdan farqli o‘laroq, aforizmda alohida olingan shaxslar obrazi haqida so‘z yuritilmaydi. Ulardagi har bir obraz o‘ta darajada umumiy bo‘lib, u shu xildagi barcha

---

<sup>1</sup> Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti. 1993. 5-son, – B.11.

kishilarga, kishilar toifasi va guruhlariga taalluqli bo‘ladi. Shuning uchun aforizmdagi har bir obrazning badiiylik darajasi ijodkor g‘oyaviy-estetik idealining miqyosi, qamrov darajasining kengligi bilan baholanadi.

Aforizmlarda boshqa janrlardagidek keng tasviriylidir, batafsildan ifodaviylik bo‘lmaydi. Binobarin, aforizmning badiyligi unda aytilgan ibratli fikrning qisqaligi, ta’sirchanligi, aniq va lo‘ndaligi bilan belgilanadi. Aforizmlardagi obraz alohidilik orqali umumiyligidir, umumiylilik orqali esa alohidilikni ifodalashga xizmat qiladi.

Aforizmlar strukturasi o‘ziga xos bo‘lib, ana shu o‘ziga xoslik badiiylikning xarakterini, uning miqyosini anglatib turadi. Chunki aforizm bir deskritivli bo‘ladimi, ikki yoki uch diskritivli bo‘ladimi, mazmunan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki qismidan tashkil topadi. Bunday tuzilish esa aforizmlarning doim kontrast (zidlik) usuli asosida yaratilishini anglatadi. Masalan, F. Laroshfuko ham aforizmlar yaratishda obrazlar va ularning faoliyati, xususiyati kabilarni qarama-qarshi qo‘yish orqali nozik kinoyali ma’noga ega bo‘lgan asarlar yozgan. Bevosita obrazlar, ularning faoliyati hamda xususiyatlarining ziddiyati aforizmdagi ma’noni qabartirib ifodalash va kishi xotirasida qolishini ta’minlaydi. Masalan: “Aqlning o‘tkirligi yolg‘onni nozik qo‘llashda o‘z ifodasini topadi”.

O‘zbek yozuvchilarining aforizmlarga bo‘lgan intilishlarini jamiyatimizni, voqelikni realistik aks ettirish uchun prinsipial intilishlari deb qaramog‘imiz lozim. Ulug‘ rus tanqidchisi V.G.Belinskiyning ta’biri bilan aytganda, aforizmlarda **“Tildagi xalq fizionomiyasи”** ifodalangan.

Sharq, xususan, o‘zbek aforistikasida ham kontrast usulidan keng foydalanilgan. Chunki ayni mana shu usul ijodkorga qarama-qarshi mohiyatga ega bo‘lgan obrazlarni taqqoslash va ibratli xulosalar chiqarishga imkon bergen. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy qarama-qarshi qo‘yish usulidan foydalanib,

ixcham va lo‘nda mazmunli aforizmlar ijod qilgan: “*Ko‘z bilan ko‘rgan eshitgandan afzaldir*”<sup>1</sup>.

Aforizm ijod qilishning ana shunday qoida va usullarini puxta bilgan Alisher Navoiy bir-biriga zid qo‘yiluvchi komponentlardan ikkinchi qismini ba’zan shakllantiradi. Buning oqibatida fikrning aniqligi hamda ishonchliligi kuchayadi. Masalan, “*Sabr bila ko‘p bog‘lig‘ ish ochilur, ishda oshiqqan ko‘p toyilur, ko‘p toyilg‘on ko‘p yiqlur*”<sup>2</sup>.

Sharq aforistikasida, xususan, Alisher Navoiy aforizmlari orasida kontrast usuliga xoslangan tardi aks san’atidan ham unumli foydalanilgan. Mazkur badiiy san’atda esa bir-biriga zid ikki obraz aforizmning ikkinchi qismida sintaktik jihatdan o‘rin almashadi. Natijada, birinchi qismda ifodalangan ibratli fikr ikkinchi qismda alohida ta’kidlanadi va tasdiqlanadi. Masalan: “*Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q*”<sup>3</sup>.

G‘arb aforistikasida dono fikr va ibratli xulosalarni o‘ziga xos shaklda, betakror ifodalash, muhimi ularni esda qoladigan va ishonarli yetkazish maqsadida aforizm strukturasiga qo‘shimcha qismlar kiritish ancha keng tarqalgan bo‘lsa, Sharq aforistikasida aforizmda ibratli dono fikrni tasdiqlovchi, kuchaytiruvchi qo‘shimcha qismlardan foydalanish janrning barqaror an’analariga aylangan.

Ma’lumki, badiiy adabiyotnimng vazifasi jamiyatga badiiy shaklda xizmat qilishdan iboratdir.

Navoiyning quyidagi hikmatli baytibesh yuz yil oldin aytilganligiga qaramay, uni millionlab kishi yoddan biladi:

*Odamiy ersang, demagil odamiy  
Anikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami*<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Абу Райхон Беруний. Ҳикматлар. –Т.: 1973. –Б.21.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 14-jild. –Т.: 1998. –В.104.

<sup>3</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 14-jild. –Т.: 1998. –В.82.

<sup>4</sup>Рустамов Аливек. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. –Б.3.

Bu baytda “*Inson xalqqa xizmat qilishi kerak*”, degan fikr aytilib, xalqparvarlik g‘oyasi targ‘ib qilingan. Agar Navoiy bu fikrni yuqoridagi shaklda ifodalamaganda edi, uni hech kim yodlamas va bu ibora kishilarni xalqqa xizmat qilishga undash vazifasini asrlar davomida bajarolmas edi.

Birinchidan, bu baytda til qoidalariga rioya qilingan, she’riyvositalarning hech biri unga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan. Natijada fikr o‘zining aniq ifodasini topgan.

Ikkinchidan, vatanparvarlik va shaxsiyatparastlik kabi qarama-qarshi xususiyatga ega bo‘lgan ikki turdagи kishi bir soz, ya’ni “*odamiy*” so‘zi bilan ifodalangan va ziddiyat boshqa so‘z, ya’ni demagil fe’li bilan ifodalangan. Natijada bu har ikki turdagи kishining tashqi ko‘rinishda bir xil ekanligi, lekin mohiyat nuqtayi nazaridan, ya’ni fe’liga ko‘ra butunlay bir-biriga qarama-qarshi vujud ekanligini shaklan isbotlagan.

Uchinchidan, shoir misrani “*odamiy*” so‘zi bilan boshlab, shu so‘z bilan tugatgan. Bu bilan u odamiylik masalasining kengligini – uning ko‘p boshqa masalalarni o‘z ichiga olishini, muhimligini, har har bir harakatning boshlanishida va oxirida, ya’ni natijasida odamiylik bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan. Bu yerda so‘zning o‘rni shu so‘z bilan ifodalangan xislatning martabasi ulug‘ligini ko‘rsatib turibdi.

To‘rtinchidan, Navoiy ehtiyoj va uni qondirishga qaratilgan faoliyatni bir so‘zning ikki formasi – “*g‘amdin*” va “*g‘ami*” bilan ifodalab, bu ikki narsa umumiy bir ijtimoiy hodisaning ikki jihatidan iboratligini ravshanlashtirgan.

Beshinchidan, bu so‘zlarning yonma-yon berilishi shaxs faoliyatini xalqmanfaatidan uzoq bo‘lmasligi lozim, ularni bir-biridan ajratadigan hech narsa bo‘lishi kerak emas, degan mazmunni anglatuvchi shakily vosita bo‘lib, ular orasidagi grammatik bog‘liqlik shaxsiy manfaat bilan ijtimoiy manfaat bir-birini taqozo qilishi zarurligini ko‘rsatuvchi formal elementdir.

Oltinchidan, san'atkor ham xalqqa, ham shaxsga nisbatan “*g'am*” so‘zini qo‘llab, “*g'ami*” yo‘q kishining odamiy emasligini shaklan tasdiqlagan: xalq odamiylar yig“indisidaniborat, xalqqa xos narsa uning a’zosida ham bo‘lishi kerak. Demak, xalqda bor “*g'am*”ning bir ulushi unga a’zo bo‘lgan yakka shaxsda ham bo‘lishi kerak. Agar unda bu narsa bo‘lmasa, uning a’zolik da’vosini qilishga haqqi ham yo‘q. Odamiy esa jamiyatsiz yashay olmagani uchun unday shaxsni “*odamiy*” deb hisoblash ham kerak emas.

Yettinchidan, qofiya xushohang, baytning ma’no va boshqa shakily vositalariga salbiy ta’sir qilmagan, aksincha, ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bunda “*odamiy*”ning qofiyaga tushishi uning muhimligi va “*g'ami*” so‘zining unga qofiyalanishi g‘amning odamiyga aloqador xususiyat ekanligini shaklda ifoda etgan.

Sakkizinchidan, vazn ravon chiqqan va vazn tufayli na til qoidasi buzilgan, na ma’no zarar ko‘rgan vana boshqa shakliy vositalarga putur yetgan.

To‘qqizinchidan, so‘zlarni takrorlash, ortiqcha so‘z va gap bo‘laklarini tushirib qoldirish hisobiga mu’jazlikka erishilgan, oz so‘z bilan ko‘p ma’no ifodalagan.

Uninchidan, xalqni o‘ylamaydigan kishiga bo‘lgan salbiy munosabat qo‘pol so‘zlar bilan ifodalanmagan. “*Odamiy demagil*” degani fikr nuqtayi nazaridan “*hayvon*” degani bilan barobar. Lekin birinchisi, odob doirasidagi fikr ifodasi, ikkinchisi, odobdan tashqaridir. Fikrni beadab shaklda ifodalanganda u qanchalik to‘g‘ri bo‘lmasin, o‘quvchi yoki eshituvchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.


Mana shu aforizmning o‘zidan Navoiy shoir sifatida inson uchun naqadar ulug‘ va qiymatbaho san’at xazinalarini meros qilib qoldirgani turibdi.

### **Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelindi:**

1. Aforizmlarning struktual-semantik tabiati o‘ziga xos bo‘lib, bu o‘ziga xoslik dono fikrning yorqin, lo‘nda va ixcham shaklda ifodalanishiga xizmat qiladi. Bunda bir-biriga zid obrazlarni qarama-qarshi qo‘yish(kontrast), keng tushunchalarni muqoyasa qilish, asosiy fikrni tasdiqllovchi, izohlovchi va shuning evaziga fikrga ibratlilik bag‘ishlovchi qo‘sishimcha qismlar keltirish kabi usullardan foydalaniladi.
2. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy aforizmlarining jahonshumulligi va abadiy tirikligining sababi ham uning badiiy shaklda bergenligidir.

### **2.2. Badiiy nutqda aforizmlarning qo‘llanilishi**

Aforizmlar yaratish har qanday ijodkorning qo‘lidan kelavermaydi. Buning uchun ijodkor tom ma’noda donishmand va faylasuf bo‘lishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, ijodkorning intellektual mahoratini belgilaydi. Abdulla Qahhor bilan zamondosh bir qator yozuvchi va shoirlar ijodida ham aforizmlarning go‘zal namunalarini uchratish mumkin. Biroq, Abdulla Qahhor nutqida qo‘llanilgan aforizmlar favqulodda betakrorligi, mazmunning chuqur ijtimoiy-falsafiyligi, davr o‘tsa-da, ohori to‘kilmaganligi bilan xarakterli. Kuzatishlarimiz asosida Abdulla Qahhor hikoyalariда qo‘llangan hikmatomuz jumlalarni gramatik jihatdan uch ko‘rinishidagi aforizmlarga bo‘lib o‘rganishni lozim topdik.



**1. Sodda gap shaklidagi aforizmlar.** Yozuvchi badiiy matnda aforizmlardan foydalanan ekan, ularni turli pragmatik maqsadlarda qo'llab, o'z ideolektiga xos illiokutiv maqsadlarni amalga oshirishda mahorat ko'rsatgan. Masalan:... Umrining chin basharasini unga ko'rsatmoqchi bo'ldim. Bu yosh yigit, dunyoda muhabbatning har qanday qufga tushadigan kalitga aylantirib olgan xotinlar ham borligini bilib qo'ysin dedim ( “Xotinlar”). Bek hazratlari o'sha vaqtida “Ayollar ming o'qisa ham savod chiqarishdan nariga o'tolmaydi, savod chiqarish uchun esa paranji tashlash shart emas!”—degan ekanlar! Demak, o'z maqsadi xaq ekanini isbot qilishi kerak, isbot qilish o'rniga uni qanaqa chiroyli so'zlarga o'ramasin — palag'da tuxumga murch sepib berganday gap — baribir yeb bo'lmaydi. (“Bek”).

Har ikki kontekstda ham sodda yopiq gap shaklida berilgan aforizmlar matn qismlari bilan ham shaklan, ham mazmunan grammatik aloqaga kirishib, personajlar xarakter-xususiyatiga ishora qilish, ko'rsatish vazifasini bajargan. Birinchi leksik qurshovda hikoya personaji Umrining ma'naviy tuban xulq-atvoriga adresant tomonidan baho berilar ekan, bunda keng ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan Dunyoda muhabbatni har qanday qufga tushadigan kalitga aylantirib

*olgan xotinlar ham bor* aforizmi badiiy ta'sirchan vositaga aylanib, hikoya badiiyatini ta'minlashda muhim vazifa bajargan. Mazkur holatni ikkinchi leksik qurshovda ham kuzatish mumkin. Hikoyada o'ta takabbur, kalondimog‘ munofiq shaxs – Bekning salbiy xatti-harakatlari satirik yo‘sinda tasvirlab boriladi. Ayollarga nisbatan past nazar bilan qarashi, ularning ijtimoy hayotdagi ishtiroki, faolligini ko‘rolmasligi uchun munofiqona qilgan harakatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bekning injener Yo‘ldosheva ustidan yozgan uydirma maqolasi uni turli xil mantiqsiz dalillar bilan bezashi *Palag‘da tuxumga murch sepib bergen bilan uni yeb bo‘lmaydi* aforizmi orqali o’ta ta’sirchan ifodalangan hamda qahramon xarakter hususiyatini komik planda tasvirlashda muhim vazifa bajargan. O‘rni kelganda shuni alohida ta’kidalab o‘tish lozimki Abdulla Qahhor nutqida qo‘llangan aforizmlarning ko‘pchiligi satirik xarakterga egaligi bilan boshqa ijodkorlar uslubidan keskin farq qiladi.

**2. *Qo‘shma gap shaklidagi aforizmlar.*** Shunday insonlar ham bo‘ladiki tug‘ilganda hech kim sevinmagan bo‘lganda butun yurt aza tutadi aforizmni “Xotinlar” hikoyasida Asqar ota tilidan keltilsa-da, unda yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan salmoqli gapini payqash qiyin emas. Ayni paytda, ushbu aforizm kitobxonga ibrat bo‘larli darajada keng ijtimoiy qamrovga egaligi bilan ham muhimdir.

Aforizmlarning yana bir xususiyati ularning mazmuni semantikasida achchiq kesatiq, o‘tkir kinoya va zaharxanda yashiringanligida ko‘rinadi. “Bevosita ana shu kesatiq, kinoya va zaharxanda aforizmda shirin, dono, ibratli fikrni anglashga yordam beradi”<sup>1</sup>. Masalan: Zuhra bir vaqtlar ota-onasiga yozgan xatida: “*Kelajakning nurli cho‘qqilarini tomon bormoqdamiz*” , degani esida bor ekan, rangi bo‘zarib ketdi.

---

<sup>1</sup>Toshpo‘latov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. N.D. –T.: 2006.

- *Ta’na qilma! – dedi labi pirpirab. – Men nurli cho‘qqiga yetolmagan bo‘lsam... sigir minib sen yetib borasan!...*

*Bu gap Samijonga ham tegib ketdi.*

- *Odam intiladigan cho‘qqi tog‘ cho‘qqisi singari bulutlar orasida emas, yerda bo‘ladi, dedi Samijon (“Nurli cho‘qqilar”).*

Keltirilgan leksik qurshovda bog‘lovchisiz qo‘shma gap shaklida berilgan *Odam intiladigan cho‘qqi tog‘ cho‘qqisi singari bulutlar orasida emas, yerda bo‘ladi aforizmi badiiy matn tarkibida adresatning xarakter-xususiyatlarigaishora berish vazifasini bajargan hamda sarkazmning eng yaxshi namunasi sifatida yuzagachiqqa.*

Demak, yozuvchi qo‘shma gap shaklidagi aforizmdan hikoyalari tilining o‘tkirligini, voqeliknig haqqoniyligini tasvirlashda, qahramonlar xarakter-xususiyatlarini individuallashtirishda, chuqr ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lgan ibratomuz jumlalar hosil qilishda foydalangan.

**3. *Mikromatn ko‘rinishidagi aforizmlar.*** Abdulla Qahhorning ijodiy-individual aforizmlar yaratish mahorati uning mikromatn ko‘rinishidagi hikmatomuz jumlalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi, ularning qo‘llanish miqyosi ham o‘ziga xos. Masalan: *Biz tovuq emasmizki, qanday tuxum bostirsa, shuni ochib chiqarsak. Tovuq bilan odam orasida qancha farq bo‘lsa, bu ikki jonivorning muhabbatি orasida ham shuncha farq bor. Nega biz choldan yoki yaxshi ko‘rmaganimiz yigitdan tug‘ar ekanmiz? Yaxshi ko‘rganimizdan tug‘mas ekanmiz, u bolaning tug‘ilmagani yaxshiroq! “Qizsan, baxtdan umidvorsan!” deysan. Agar men qizligim uchun baxtdan umidvor bo‘lsam, baxtsizligim bo‘ladi. U vaqtida men umrni tikib oshiq otgan bo‘laman. Chuv tushdimmi-umr ketdi!... Yo‘q, Turg‘unoy, menimcha, baxtni erdan izlashning o‘zi baxtsizlikning boshlanishidir* (“Maston”).

Berilgan leksik qurshovda mikromatn ko‘rinishida keltirilgan aforizm o‘zining semantik ifodasiga ko‘ra xarakterlidir. Zero, “matnning asosiy mohiyati

uning mazmuniy tomoni bilan belgilanadi”<sup>1</sup>. Undagi biror so‘z yoki jumla tushirilsa, yoki o‘zgartirilsa, ularda kommunikativ-pragmatik maqsad ifodasi o‘z ta’sirchanligini yo‘qotadi, jumla mazmuni sayozlashadi.

Yozuvchi hikoyalarida qo‘llangan mikromatn ko‘rinishidagi aforizmlar voqelikka davr ruhini berish xususiyati bilan ham ajralib turadi. Jumladan, yuqorida keltirilgan leksik qurshovda XX asr 20-yillari oxiridagi ayollarni erkinlikka chiqarish, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ishtirokini rivojlantirishga qaratilgan “Xujum” harakati voqealariga ishora beriladi. Bundan tashqari, mikromatn ko‘rinishidagi aforizm orqali personajlar nutqi individuallashtirib, ularning o‘ziga xos kurashchanlik, ilg‘or fikrlilik kabi xislatlari matn semantikasida implitsit ifodalangan.

Ko‘rinadiki, mikromatn ko‘rinishidagi aforizmlar badiiy matnda davr ruhiga xos xalqchillikni ta’minlashda, qahramonlar xarakter-xususiyatini o‘ziga xos tasvirlashda, individual fikrning ijtimoiylik kasb etishida ta’sirchan vositaga aylangan.

Atoqli adib A. Qahhor faqat kontrast usuli orqaligina kuchli kinoya hamda kesatiqqa ega bo‘lgan aforizmlar yaratgan. Uning quyidagi aforizmi buning yorqin misolidir: “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”<sup>2</sup>.

Xullas, yozuvchi hikoyalarida qo‘llangan aforizmlar kitobxonlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, insoniylik tuyg‘ularini kamol toptirishda hamda hikoyalar badiiyatini ta’minlashda o‘zining haqiqiy estetik vazifasini bajargan.

Nutqqa tayyor holda olib kirish mumkin bo‘lgan bunday so‘zlarni Said Ahmad asarlarida ham uchratdik: *Ezmaligim uchun kechirasizlar, Alisher Navoiyni qariganda o‘qish kerak ekan. Hozir muk tushib Navoiyni*

<sup>1</sup>Hakimova M.X. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini DD. –T.: 2001. –B.165.

<sup>2</sup>Абдулла Қаххор. Ёшлар билан сухбати. –Т.: 1968. –Б.140.

*o‘qiyapman. Mana eshiting, u nima deydi: “Oqil kishi rostdan o‘zgani demas, hamma rost ham degulik emas”. Eshityapsizmi, aqlli odam faqat rost gap aytadi, lekin rost ekan, deb hamma gapni ham aytavermaslik kerak, deydi. Ko‘rdingizmi, Usmonov shu yerda yoshligiga borib, aytish shart bo‘lmagan gaplarni ham aytib yubordi, buning uchun uni kechirish kerak. U keyin o‘zini o‘nglab oladi.* (“Jimjitlik”, 11- bet).

O‘zbek xalq donishmandligi mahsuli bo‘lmish maqollarga adabiyotlarda quiyidagicha ta’rif berilgan:

1. Grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda yoki ham ko‘chma ma’noda ham o‘z ma’nosida qo‘llanadigan hikmatli xalq iboralaridir<sup>1</sup>;
2. Chuqur ma’noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega bo‘lgan folklor janri<sup>2</sup>;
3. Turmush tajribalari zaminida tug‘ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko‘pincha she’riy shakldagi hikmatli so‘zlar, chuqur ma’noli iboralar<sup>3</sup>;
4. Grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o‘tkir mazmunli, faqatgina ko‘chma ma’noda ishlatiluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari<sup>4</sup>.

Adib asarlarini o‘rganish jarayonida ham bir qancha o‘rinlarda xalq donishmandligining mahsuli bo‘lmish pand-nasihat ruhidagi purma’no maqollarni uchratdik: –*Yetim qo‘zi asrasang og‘zi burning moy yetar, yetim o‘g‘il asrasang og‘iz – burning qon yetar, deb shuni aytadi-da! Hoy, nega shumshayib o‘tiribsanlar, echkilarni qayirib kelmaysanlarmi, yelini to‘lib ketdi-ku! Muncha*

<sup>1</sup>Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1984. –B.11.Jo‘rayeva B. Ibora va maqolda idiomalashuv // O‘TA, 2010. №6, -B.107.

<sup>2</sup>Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: Fan, 2002.–B.62.

<sup>3</sup>Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1967.1–Б.6.

<sup>4</sup>Jo‘rayeva B. Ibora va maqolda idiomalashuv // O‘TA, 2010. №6, -B.107.

*peshonam sho'r bo'lmasa... ("Jimjitlik", 22- bet). Kunda yegan och, yilda yegan to'q, deb shuni aytadi-da. ("Jimjitlik", 56- bet).*

Yozuvchilarning til vositalaridan foydalanishdagi individual ijodiy mahorati turlichadir. Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishda, ko'pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodkorning okkazional so'z va ibora yaratish mahorati kabi masalalar o'rganiladi<sup>1</sup>-yu, ularning fonetik va grammatik xususiyatlari e'tibordan chetda qoldiriladi. Lekin Said Ahmad asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha sathlari uchun ham boy poetik material bera olishi kuzatiladi.

Said Ahmad asarlari tilini tahlil etish jarayonida yozuvchi uslubiga xos individual iboralarga ham duch kelamiz.

Individual iboralar yozuvchining uslubiga xos maxsus yaratilmalardir. Bunday iboralar yozuvchining so'z tanlash mahoratiga bog'liq holda, asarning nutqiy ta'sirchanligini, jozibasini oshiradi.

Asarni tadqiq etish jarayonida ijodkor qalamiga mansub individual maxsus yaratilmalarga duch keldik: *Kampir to'qsondan oshgan, halimdek hilvirab qolgan. U Tolibjonning o'gay onasi*<sup>2</sup>.

Ushbu parchada e'tiborimizni tortadigan individual ibora "halimdek hilvirab qolgan" birikmasidir. "Halim" leksemasining bosh ma'nosi – *yumshoq, yuvosh, muloyim, beozor, sabr-toqatli*<sup>3</sup>.

"Halimdek hilvirab qolgan" iborasidagi leksemaning bosh ma'nosidan "qarimoq" ma'nosi o'sib chiqqan.

Adib metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, ramz, kinoya va boshqa tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Yozuvchi asarlarida keng qo'llangan uslubiy vositalardan biri metaforadir. Badiiy tildagi obrazlilikni yuzaga

<sup>1</sup>Aliyev A.Yu. Abdulla Qodiriy "Obid ketmon" qissasining ba'zi til xususiyatlari // O'zbek tilshunosligining aktual masalalari. – T., 1985.

<sup>2</sup>Said Ahmad. Jimjitlik. O'zbekiston, 2008. –B.5.

<sup>3</sup>O'TIL, V, 492-b.

chiqarishda, voqealarning aniq, ishonarli va yorqin tasvirlanishida metaforaning o‘rnini beqiyosdir.

Said Murod ijodida jonli metaforalar anchagini kuzatiladi. Ular personajlarning ruhiy holati, tabiat tasviri, qahramonlarning voqelikka munosabatini obrazli ifodalashda muhim uslubiy vosita vazifasini o‘tagan.

M: *Dalalarim entikdi.*

*Dalalarim uyg‘ondi. Dalalarim ko‘z ochdi.*

*Dalalarim meni imladi, dalam meni chorladi.*

Insonga xos bo‘lganentikdi, uyg‘ondi, ko‘z ochdi, imladi, chorladi kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar jonsiz narsaga – dalaga nisbatan qo‘llanib, kuchli emotzionallikni yuzaga chiqaradi.

Badiiy asar tilida keng qamrovli til birliklari – fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga ijodkorning so‘z boyligidan o‘ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

### **Ushbu fasl yuzasidan quyidagicha xulosalarga keldik:**

1. Har bir lingistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham bo‘la olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar bo‘lib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta’sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo‘ladi.
2. Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi yozuvchilaraslarida qo‘llangan aforizmlar kitobxonlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, insoniylik tuyg‘ularini kamol toptirishda hamda asarlar badiiyatini ta’minlashda o‘zining haqiqiy estetik vazifasini bajargan.

### **III. BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI**

#### **3.1.Kirish suhbat. “So‘zdan so‘zning farqi bor....”**

**Dars jahozi:** Darslik, rasmli kartochkalar, matnlar “Xalq maqollari” va “Hikmatlar” kitoblari, grammatik topishmoqlar to‘plami.

**Dars uslubi:** Didaktik o‘yin, suhbat

**Dars maqsadi:** o‘quvchilarda barqaror birikmalar haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish. Ularni nutqda iboralardan, maqol va matallardan, hikmatli so‘zlardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatish.

**a) ta`limiy** - o‘zbek tilining boy ifoda vositalari, lug‘at boyligi, uning boyish manbalari haqida o‘quvchilarning mavjud bilim, tushunchalarini kengaytirish, mustahkamlash;

**b) tarbiyaviy** - do‘stona muhitda hamkorlikda ijodiy ishlash, so‘z kuchini inson hayotidagi o‘rnini anglash;

**d) rivojlantiruvchi** - mustaqil ijodiy fikrlash va matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism:**

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- c) sinf tozaligini tekshirish;
- e) o‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish.

**1- bosqich.** Kirish suhbat. Dars suhbat usuli bilan boshlanadi. Suhbat jarayonida quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Istiqlol yillarida siz yashab turgan mahalla (qishloq, shahar, tuman, viloyat) da qanday o‘zgarishlar bo‘lganini izohlay olasizmi?

2. Milliy g‘oya deganda nimani tushunasiz?
3. Mustaqillik va ona tilini madh etuvchi she’rlardan yod aytning va izohlang.

Ona tilim –onam alla aytgan til,  
 Ko‘zlarimga surtay har bir so‘zingni.  
 Sen borsan dunyoda o‘zbek degan el,  
 Kuylab yashayveray qora ko‘zimni.

Grammatik topishmoq orqali 7-sinfda o‘rganilgan bilimlar esga olinadi.

### **Grammatik topishmoq:**

<p><i>Yigitlarga vazminlik,</i>  <i>Qizlarga bo ‘lsin ibo.</i>  <i>Donoga bag ‘rikenglik,</i>  <i>Yo ‘shlarda bo ‘lsin hayo.</i>  <i>Qanday qo ‘shimchadir –lik,</i>  <i>Qanday so ‘z bag ‘rikenglik.</i>  <i>(mavhum ot yasovchi)</i></p>	<p><i>Kitob o ‘qidi Erkin,</i>  <i>Oynomamizni Shirin.</i>  <i>Qaysi so ‘zda kelishik</i>  <i>Qo ‘shimchasi yashirin?</i>  <i>(tushum k.)</i></p>
<p><i>Yema ovqatni to ‘yib,</i>  <i>Oz ye, tez-tez och qolib.</i>  <i>Shunda jismoniy mashqni,</i>  <i>Eplaysan qoyil qilib.</i>  <i>Ye qanday so ‘zdir gapda,</i>  <i>Ham qanday vazifada.</i>  <i>(buyruq fe`li)</i></p>	<p><i>Qalam bilab yozamiz,</i>  <i>Men bilan sen yozamiz.</i>  <i>E`tibor bering gapga,</i>  <i>Bunda ikki bilan bor,</i>  <i>Bir-biridan farqi bor,</i>  <i>Toping qanday farqi bor?</i>  <i>(Bog ‘lovchi, ko ‘makchi)</i></p>

<p><i>Bosh bo 'lakdan tuzilar,</i></p> <p><i>Kichik gapday ko 'rinar?</i></p> <p><i>(soda yig 'iq gap)</i></p>	<p><i>Ergash bo 'laklari bor,</i></p> <p><i>Ham bosh bo 'laklari bor.</i></p> <p><i>(Sodda yoyiq gap)</i></p>
--	---

**2-bosqich. Yakka tartibda ishlanadi.** Bunda har bir o‘quvchiga rasmlı kartochka tarqatilib, uni kuzatish va rasm mazmuni asosida 2 -3 jumlali matn tuzish topshirig‘i beriladi. Mustaqil ish natijasi 3-4 o‘quvchiga o‘qitilgandan so‘ng kuzatuvchilar tomonidan (jarayon boshlanishidan oldin 2 o‘quvchidan iborat kuzatuvchi belgilangan bo‘ladi) ish mazmuniga baho berishda o‘quvchilarning tilimiz imkoniyatidan qay darajada foydalana olganliklariga, ifoda vositalarining rang – barangligiga e’tibor qaratiladi.

**3-bosqich. Guruhlarda ishlash.** Sinf inson qobiliyatiga nisbat berilgan so‘zlar yordamida (m: zukkolar, topqirlar, bilimdonlar, chaqqonlar va h.) guruhlarga ajratiladi. Guruhlarga bir mavzu yoki voqeа – hodisa turlicha yoritilgan yoxud talqin etilgan matn tarqatiladi (bunda darslikdagi matnlardan foydalanish tavsiya etiladi).

### **Mukofot va jazo (matn)**

#### **1-guruhga:**

*Bir kuni podshoh kechasi ko ‘rgan tushini munajjimga so ‘zlab berib, ta ’birini so ‘rabdi. U tushga shunday ta ’bir beribdi:*

*-Shohim, sizning barcha yoru do ‘stlaringiz o ‘lib ketadi, siz yolg ‘iz qolib, ko ‘p azob chekasiz.*

#### **2-guruhga:**

*G ‘azablangan podsho munajjimga jazo beribdi.*

*Shu tushni vazirga aytibdi. Vazir shunday ta ’bir beribdi:*

*-Shohim bu qutlug‘ tush sizga muborak bo ‘lsin. Sadaqlar bering, bandilarni zindondan ozod qiling. Tangri sizni barcha yoru do ‘stlaringizdan uzoqroq umr ko ‘rish baxtiga tuyassar qiladi. Podsho vazirni taqdirlabdi.*

### 3 guruhga:

*Podsho o‘g‘liga: Tushga har ikkalasi ham ta‘birni bir xil berdi. Lekin qaysisi qanday tarzda -dedi o‘g‘il. Gap xuddi mana shunda-da.*

### 4-guruhga:

*So ‘z tanlash, muloyim so ‘zlash, o ‘ylab gapisirish haqida qanday xalq maqol va hikmatli so ‘zlarni bilasiz?*

#### *(Illova: Maqol va hikmatli so‘zlar)*

1. So ‘z doriga o‘xshash, ortiqchasi zarar qiladi.
2. Til shirinligi-ko ‘ngilga yoqimli, yumshoqligi-foydali.
3. Ko ‘ngli va tili bir bo‘lgan kishining aytgan so ‘zi but.
4. Aytilmagan so ‘z-sof oltindir. Tildan chiqqan so ‘z esa, misdir.
5. So ‘z o‘likni tiriltirur, tirikni o‘ldirur. (“Hikmatlar xazinasi” kitobidan.

**4-bosqich.** “So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor”, “Donoga ishora-nodonga kaltak” maqollarining mazmunini izohlash.

A. Navoiyning “So ‘z durrining tafovuti mundin dag‘i (ham) beg‘oyatroq (cheksizroq) va martabasi mundin ham benihoyatroqdir. Adoqli, sharifidin (ta‘siridan) o‘lgan badang‘a ruhi pok etar (toza ruh bag‘ishlaydi), kasifidin

*(kasofatidin) hayotliq tang‘a zahri halok xosiyati (o‘ldiruvchi zahar xosiyatini) zuhur etar (hosil qiladi)” degan fikrini ham izohlash.*

Guruhlarning taqdimotlari yakunlangach, xulosa qilinadi. Demak, so‘zning qudrati shu darajadaki, u insonga jon bag‘ishlashi ham, hayotini zaharlab, halokatga olib kelishi ham mumkin ekan.

**Bilib oling: Inson o‘zining ma’lum bir fikrini turli so‘zlar yoki iboralar vositasida turlicha ifodalashi mumkin. Bunday o‘zgacha ifodani so‘zlovchining bilim saviyasi, hayotiy tajribasi, so‘z boyligi va nutq paytidagi vaziyat belgilaydi. Hikmatli so‘zlarni o‘rganib, xotirada saqlab, nutqda o‘rinli qo‘llay bilish kishining so‘z san’atkori, donishmand bo‘lishini ta’minlaydi.**

**Darsni mustahkamlash:** Ayni bir fikrni turlicha ifodalash mashqi.(“Sendan ugina, mendan bugina” o‘yini) Masalan: *Nozima indamas,*

*pismiq qiz. Nozima kamgap, ichimdagini top deydig'anlardan. Salima kasal bo'lib qolibdi. Salimaning bir oz tobi qochibdi.*

**Matn yaratish:** “*Tig‘ yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi*” maqoli asosida matn yaratiladi.

Matn taxminan shunday boshlanadi: Ota-onalarimiz, ustozlarimiz doimo shirinso‘z bo‘lishga o‘rgatadilar. Yaxshi so‘z ham, yomon so‘z ham bir og‘izdan chiqadi. Hammaga yaxshi muomalada bo‘lish darkor. Dilozorlik qilish kerakmas. Bunday odamdan hamma bezor.

Rebusni yeching. Tushurib qoldirilgan harflarni yozish natijasida hosil bo‘ladigan hikmatli so‘zni toping.

D		H			N	I			O		
	R	T		Q		D	R		T		I
B		L		R		U	D		A	T	
	R		N		N	G		E		Q	
B		Y			O‘		U	R			I

### Javobi:

*Dehqoni boy yurt qudratli bo‘lur, qudratli yurtning dehqoni boy bo‘lur* (I.A.Karimov).

### Savol va topshiriqlar:

1. Barqaror birikma deganda nimani tushunasiz?
2. Barqaror birikmaning qanday turlari mavjud?
3. Frazeologizm nima?
4. Maqol va matal deganda nimani tushunasiz?
5. Qanday birikmalar hikmatli so‘zlar (aforizmlar) sanaladi?

**Uyga vazifa:** Mustaqillik va istiqlol, kelajak va istiqbol so‘zlarini ishtirok ettirib matn tuzish.

Xullas, xar bir darsda o‘quvchi va talabalar ma’lum miqdorda hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ni yodlab borsalar, birinchidan, ularning so‘z boyligi oshadi,

ikkinchidan, grammatik materiallarni mustahkamlab borish imkoni yaratiladi. Shuningdek, hikmatli so‘zlar (aforizmlar)dagи so‘z va birikmalarni turli va chiroylı talaffuz qilish o‘quvchilarda o‘zbek tili orfoepik me’yorlarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

## XULOSA

O'zbek adabiyoti materiallarini o`rganish aforizmlar yirik badiiy polotnolarning asosiy sujeti va mazmuniga singib, organik bo`laklarga aylanib ketganligini yetarli dalilar bilan tasdiqladi. O'zbek yozuvchilari yaratgan roman va povestlarda, hikoya va ocherklarda, drammatik va she'riy asarlarda milliy ruhiyatni yorqin qilib berishda, personaj xarakteri va psixologiyasini ochishda, tilni individuallashtirishda, reallik va xalqchilikni ko`rtarishda aforizmlar asosiy badiiy vositadir.

Adabiyotning har bir janri o`z tiliga, o`ziga xos vosita va imkoniyatga ega. Proza hajm jihatidan keng va so`zlashuv tiliga juda yaqin bo`lganligi sababli unda aforizmlar adabiyotning boshqa janrlariga qaraganda katta o`rin tutadi.

Aforizmlardan foydlanishda ham har bir yozuvchi, shoirning o`ziga xos uslubi borki, bu uslub o`sha yozuvchi va shoirning badiiy uslubini belgilashda katta rol o`ynaydi. Agar biz mumtoz adabiyot vakillari Farididdin Attor hikmatlari zakovat bo'stoniga, Jaloliddin Rumiy hikmatlari ma'naviyat dengiziga qiyos qilingan, Sa'diy Seroziy esa hayotdan hikmat topgan shoir sifatida e'tirof etilgan bo'lsa, Alisher Navoiyning hikmatlari tafakkur tuhfasi deb tan olingan. O'zbek adabiyoti vakillari Abdulla Qahhorning, Said Ahmadning asarlarini o`qib, hikmatlar tuzish mahoratiga diqqat qilsak ularning har biri o`ziga xos uslubga ega ekanligi yaqqol namoyon bo`ladi.

O'tgan asrning 90-yillarda ayrim olimlar ilmiy jamoatchilikka badiiy adabiyotning uch turi (poeziya, proza va drama)dan tashqari to'rtinchi turi – paremiya turi ham mavjudligini asoslashga intilgan edilar. Aforizm janri dunyo xalqlarining barchasida mavjud va ular haqida jahon paremiologiyasida turlichalar bildirilgan. Aforizmlarning badiiy shakli masalasida yagona hukmron fikr, yagona konsepsiya yo'q. Ko'pchilik olimlar aniq muallifga ega bo'lgan chuqur mazmunli, ixcham ifoda shakliga ega bo'lgan hikmatli gaplarni

aforizm deb hisoblasalar, ayrimlar aniq muallifga ega bo‘lmagan qanotli iboralarni ham ushbu janr tarkibiga kiritadilar.

Aforizmlar o‘zining juda qisqa va ma’nodorligi bilan qadim zamonlardan beri kishilar ularning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Shuning uchun kishilar ularni diqqat bilan to‘plaganlar va alohida to‘plam holida qayta-qayta nashr etganlar.

### **Tadqiqot yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelindi:**

1. Aforizm ta’rifidagi yirik farqlar quyidagi belgilarda ko‘rishimiz mumkin. Bular quyidagilar: Mualliflik mavjudligi; Paradoksning mavjudligi; Aytilgan fikrga isbot talab etilmaslikning mavjudligi; Tafakkur qilishga undashning mavjudligi.
2. Hikmatli so‘zlarga adabiyotlarda turlicha ta’riflar berib o‘tilgan: Aforizm – aniq va ixcham ifodalanib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli so‘zlar; Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; Ma’lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma’nodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir.
3. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar: Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik nutqqa tayyor holda olib kirishlik; Ma’no butunligi; Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.
4. Voqeal, hikmat deyilganda o‘tmishda: 1) ilm, ma’rifat va donishmandlik; 2) falsafa va falsafiy ilmlar; 3) mohiyat, sir-asror ko‘zda tutilgan. Hikmatli so‘zlar (aforizmlar)ni ikki turga bo‘lish mumkin. Bular har qanday badiiy nutqda ishlatilishi mumkin bo‘lgan **kiruvchi** aforizmlar va **mustaqil** aforizmlar.
5. Aforizmlarning struktual-semantik tabiatini o‘ziga xos bo‘lib, bu o‘ziga xoslik dono fikrning yorqin, lo‘nda va ixcham shaklda ifodalanishiga xizmat qiladi. Bunda bir-biriga zid obrazlarni qarama-qarshi qo‘yish(kontrast), keng

tushunchalarni muqoyasa qilish, asosiy fikrni tasdiqlovchi, izohlovchi va shuning evaziga fikrga ibratlilik bag‘ishlovchi qo‘shimcha qismlar keltirish kabi usullardan foydalaniladi.

6. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy aforizmlarining jahonshumulligi va abadiy tirikligining sababi ham uning badiiy shaklda bergenligidir.
7. Har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham bo‘la olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar bo‘lib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta’sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo‘ladi.
8. Alisher Navoiy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi yozuvchilar asarlarida qo‘llangan aforizmlar kitobxonlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, insoniylik tuyg‘ularini kamol toptirishda hamda asarlar badiiyatini ta’minlashda o‘zining haqiqiy estetik vazifasini bajargan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **Siyosiy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.:O’zbekiston, 2017-y.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2010. – 173 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” (yangi tahrirda)gi Qonuni.
4. Karimov I. A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, keljakka e’tibor. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 40 b.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –T.: Sharq, 2001.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun // Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1992.

### **Ilmiy-nazariy, adabiy asarlar:**

1. Абдуллаев Х. “Кутадғу билиг”да халқ мақоллари (илмий рисола). –Нұкус: Билем. 2003. –Б.3-15.
2. Абдусаидов А. Газета сарлавҳаси (қўлланма). – Самарқанд: СамДУ, 1995.
3. Абдусаидов А. Газета тилида мақоллардан фойдаланиш (библиографик кўрсаткич). – Самарқанд: СамДУ, 1986. – Б. 4-56.
4. Абдулла Қаҳхор. Ёшлиар билан сұхбати. –Т.: 1968.
5. Абу Райхон Беруний. Ҳикматлар. –Т.: 1973.
6. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: O‘zbekiston,1998.
7. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 1-jild. – T., 1987.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 14-jild. –T.: 1998.
9. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1984.
10. Бобоева А. Газета тили ҳақида. – Т.: Фан, 1983.

11. Sp.Sirojiddinov va b. Navoiyshunoslik. –T.: Tamaddun, 2018.
12. Doniyorov X., Mirzayev S. So‘z san’ati (Mahorat va til haqida mulohazalar). – T.: 1962.
13. Ming bir hikmat. Fors-tojik klassiklari aforizmlaridan tuzuvchi va tarjimon Shoislom Shomuhammedov. –T.: Badiiy adabiyot, 1965.
14. Nazarova X.H. Niyoziyning tili haqida. –T.: 1954.
15. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002.
16. Pinxasov Ya. Hamid Olimjon tilida frazeologik iboralar. – T.: – Buxoro.: 1953.
17. Райхонов Ф. Шеър қанотидаги юлдузлар (ўзбек халқ оғзаки ижодида қофия санъати). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986.
18. Рустамов Аливек. Навоийнинг бадиий маҳорати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
19. Said Ahmad. Jimjitlik. O‘zbekiston, 2008.
20. Salayev F., Qurbaniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. –T.: Yangi asr avlod, 2010.
21. Саломов F. Тил ва таржима (бадиий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Т.: Фан, 1966.
22. Саломов F. Таржима назарияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1983.
23. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Т.: 2004.
24. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. –Т.: 1978.
25. Samadov Q. Oybek so‘z san’atkori. –T.: 1965.
26. Tafakkur tuhfalari. Sa’diy Sheroyi. Hikmatlar. –T.: O‘zbekiston, 2013.
27. Tafakkur tuhfalari. Fariddin Attor. Hikmatlar. –T.: O‘zbekiston, 2012.
28. Tafakkur tuhfalari. Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. –T.: O‘zbekiston, 2013.
29. O‘zME, 5-tom. –T.: –B.543.
30. O‘TIL, V, 492-b.

31. Ўзбек халқ мақоллари ва топишмоқлари (услубий қўлланма). Тузувчи: Э.Мусурмонов. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 26 б.
32. Shoabdurahmonov Sh. Ravshan dostoning badiiy tili haqida. –Т.: 1949.
33. Shomaqsudov A.Sh. Muqumiy satiralarining tili (Leksika frazeologiya) – Т.: 1969.
34. Shomuhamedov Sh. Otalar orzusi – istiqlol ko‘zgusi. –Т.: O‘ZFA, 1963.
35. Qo‘chqortoyev I. Abdulla Qodiriyning frazeologik mahorati. –Т.:1965.
36. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlilli asoslari. –Т.: Fan,2006.
37. Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили (ўзбек ёзувчиларининг асарларида мақол ва афоризмлар). – Т.: Фан, 1971. –176 б.
38. Ҳомидий X., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1970.
39. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
40. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –Т.: Fan, 2002.
41. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. –Т.: O‘qituvchi, 1967.
42. Husainov M. Yozuvchi Prozasining frazelogiyasi. –Samarqand: 1959.
- 43. Hakimov. M. O’zbek pragmalingvistikasi asoslari.-T.:Akademnashr.2013.143-b.**
- 44. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u biling .Nashrga tayyorlovchi: B.To’xliyev va b.: T.2010.**

### **Maqola va to‘plamlar**

1. Jo‘rayeva B. Ibora va maqolda idiomalashuv // O‘TA, 2010. №6, –B.107.
2. Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti. 1993. 5-son, –B.11.

3. Соатов Б. Мақолларнинг матал ва топишмоқларга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. № 4. – Б. 37-40.
4. Саримсоқов Б. Адабий турлар ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. № 5-6. – Б. 3-12.
5. Саримсоқов Б. Янги адабий тур ҳақида / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2002 йил 7 июнь.
6. Саломов F. Мақол ва идиомалар таржимаси. –Т.: ЎзФА, 1961. –В.162; Саломов F. Тил ва таржима //бадиий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари. – Т.: Фан, 1966. – Б.237-340.

### **Dissertatsiya va avtoreferatlar**

1. Абдуллаев Ҳ.Д. Халқ мақолларининг “Қутадғу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадиий-эстетик функциялари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. –Т.: 2008. – 23 б.
2. Jo‘rayeva B.M. Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma’noviy-uslubiy qo‘llanilishi. Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. –Samarqand, 2002. – 23 b.
3. Toshpo‘latov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. : Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. –T., 2006. –23b.
4. Toshpo‘latov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. N.D. –T.: 2006.
5. Hakimova M.X. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini DD. –T.: 2001.
6. Hakimov. M. O’zbek pragmalingvistikasi asoslari.-T.:Akademnashr.2013.143-b.

### **Internet manbalari**

1. [www.naukashop.com.](http://www.naukashop.com)
2. <http://www.Toxclesign.ru/aphorism>
3. <http://www.famousquotesandauthors.com>
4. <http://www.braintyquote.com>
5. <http://www.all-aforizmy.ru>

6. <http://www.wisdoms.ru>